



TRANSFORMATION OF FAMILY RELATIONS IN RENEWED UZBEKISTAN

Saodatkhon Inoyatova

Lecturer, Doctor of Philosophy (PhD)

Tashkent Pharmaceutical Institute

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Family, society, family relations, transformation, family members, social institution, family and marriage issues.

Received: 22.04.25

Accepted: 24.04.25

Published: 26.04.25

Abstract: This article examines the change in the role and responsibilities of family relations as a result of the transformation of family relations in a renewing society. This is based on the importance of the formation of socio-legal directions of value and worldview relations of the individual. The transformation of family relations in society is characterized by the formation of new relationships.

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA OILAVIY MUNOSABATLARNI TRANSFORMATSIYALASHUVI

Saodatxon Inoyatova

o'qituvchi, Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent farmatsevtika instituti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Oila, jamiyat, oilaviy munosabatlar, transformatsiya, oila a'zolari, ijtimoiy institut, oila va nikoh masalalari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangilanayotgan jamiyatda oilaviy munosabatlarning transformatsiyalashuvi natijasida oilaviy munosabatlarning roli va majburiyatlarini o'zgarishi tadqiq etilgan. Bunda shaxsning qadriyat va dunyoqarash munosabatlarning ijtimoiy-huquqiy yo'nalishlari shakllanishi muhim ekanligiga asoslanadi. Jamiyatda oilaviy munosabatlarning transformatsiyalashuvi o'ziga xos xususiyatga yangi munosabatlarni shakllanishi ochib berilgan.

ТРАНСФОРМАЦИЯ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ОБНОВЛЯЕМОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Саодатхон Иноятову

Преподавателя, Доктор философии (PhD) по философским наукам

Ташкентский фармацевтический институт

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Семья, общество, семейные отношения, трансформация, члены семьи, социальный институт, вопросы семьи и брака.

Аннотация: В данной статье исследуется изменение роли и обязанностей семейных отношений в результате трансформации семейных отношений в обновляющемся обществе. Это основано на важности формирования социально-правовых направлений ценностных и мировоззренческих отношений личности. Трансформация семейных отношений в обществе раскрывает специфику формирования новых отношений.

Kirish. Oilaviy munosabatlar transformatsiyasi – bu ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p qirrali murakkab jarayon va bu jarayonda oila tushunchasi, uning vazifalari, oilaviy munosabatlarni tashkil etishdagi oila a’zolari o‘rtasidagi roli va majburiyatlarini o‘zgarishi. Bu murakkab jarayonda oila a’zolarining hayotini yaxshilash va oilaviy munosabatlarni mustahkamlash muhimdir.

Ijtimoiy hodisalar orasida oila muhim o‘rinlardan birini egallaydi. Eng asosiysi oila muhim ijtimoiy va psixologik guruh bo‘lib, u jamiyatning asosiy ijtimoiy birligi vazifasini bajaradi, uning o‘rnini biron bir ijtimoiy institut egallamaydi. Bu shaxsni shaxs sifatida ijtimoiylashuvi va uni barcha avlodlarining etnik-madaniy qadriyatlari bilan tanishtirishdir. Bu yerda shaxsning qadriyat va dunyoqarash munosabatlari va ijtimoiy-huquqiy yo‘nalishlari shakllanadi, uning muhim kuchli qobiliyatlari namoyon bo‘ladi, o‘ziga xos xususiyatga ega munosabatlar shakllanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oilaviy munosabatlarda o‘zaro muvofiqlik mezoni - muvofiqlik, o‘xshashlik va bir-birini to‘ldirishning maqbul kombinatsiyasiga asoslangan sheriklarning o‘zaro qabul qilinishi bilan belgilanadi.

“Avesto”da zardo‘shtiylikning oltin qoidalardan biri – oila muqaddas sanalgani bois, boshqa ayrim sabablarga ko‘ra, masalan, ig‘vo, tuhmat, er-xotinning o‘zaro kelishmovchiligi, ota-onal bilan murosa-madora qila olmaslik kabi bahonalar bilan nikohning bekor qilinishiga yo‘l qo‘yilmagan [1.20.].

Har bir insonning eksklyuziv va o‘ziga xos fazilatlari va xususiyatlari mavjud, shuning uchun turmush o‘rtoqlar o‘rtasida 100% muvofiqlik mumkin emas. Turmush o‘rtoqlar o‘zaro munosabatlari uchun bir qator muvofiqlik mezonlar mavjud:

- 1) Hayotiy qadriyatlar, qiziqishlar, e’tiqodlarning muvofiqligi;
- 2) Muayyan ittifoqdagi o‘z rollari va funktsiyalari haqidagi taxminlar va g‘oyalarning izchilligi;
- 3) Odamlarning individual psixologik xususiyatlarining mosligi: temperamentlarning mosligi, xarakter xususiyatlari, jinsiy muvofiqligi[2.] shular jumlasidan hisoblanadi. Oilaviy munosabatlarda qadriyat va psixofiziologik moslik katta ahamiyatga ega. Qanchalik ko‘p intilishlar va qadriyatlar bir-biriga to‘g‘ri kelsa, odamlar bir-birini tushunishlari qanchalik oson bo‘lsa, moslik shunchalik yuqori bo‘ladi. Qadriyat va psixofiziologik mos kelmaslik oilaviy munosabatlarni tashqi (qo‘ni-qo‘shni, mahalla) va ichki (oila azolaridan iborat shaxslar) ta’sirlar yordamida ham saqlab qolish imkonini bermaydi. Muvofiqlik yoki nomuvofiqlikning barcha boshqa mezonlari o‘zaro moslashish jarayonida osonroq o‘zlashtiriladi. Muvofiqlik bu holda kelishuv, er-xotinning oilaviy hayot haqidagi g‘oyalari va umidlarining o‘xhashligi, er-xotindagi rollarning izchilligi sifatida ishlaydi.

Oila va nikoh masalalari har doim katta qiziqish uyg‘otdi, oilada qadr-qimmat munosabatlari shakllanadi, oilada bola o‘zi, boshqalar bilan, dunyo bilan qanday munosabatda bo‘lishni o‘rganadi. Biz hayotning dastlabki saboqlarini oilada o‘rganamiz. Oila - bu shaxsiyatni shakllantirishning noyob instituti, uni boshqa biron bir ijtimoiy guruh o‘rnini bosa olmaydi. Bizningcha, falsafiy yondashuv nuqtai-nazaridan tahlil qilganda, oila ijtimoiy hamjamiatning murakkab shakli, dunyonи bilish modeli sifatida tavsiflenadi.

Oila sohasida sodir bo‘layotgan jarayonlarni har tomonlama tahlil qilmasdan, ajralmas ijtimoiy hayotni to‘liq anglab yetish mumkin emas. “Oila institutining hozirgi holati oilani rivojlantirish masalalari ilmiy-tadqiqotlarning yetarli emasligini, oila, ta’lim muassasalarida madaniy-tarixiy meros salohiyatidan sust foydalanilayoganligini, milliy mentalitetimizga yot bo‘lgan g‘oya va qarashlar ta’siri yuqoriligidacha qolayotganligini, o‘quv dasturlari nomukammalligi uni qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash sohasidagi mavjud kamchiliklar, muammolarni hal etish, mazkur sohada kutilayotgan ijobiy natijalarga erishish imkonini bermayapti. Shuning uchun Yangi O‘zbekiston – ma’rifiy jamiyatni barpo etishda oila institutini mustahkamlashga oid “Farovon oila – jamiyat ravnaqining asosi” konseptual g‘oyasini hayotga tatbiq etish, zamonaviy oila modelini shakllantirishning nazariy metodologik asoslarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda”[3.22.]. Aynan shu maqsadda 2024 yil 15 martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahallabay ishslashga mas’ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini

va hamkorligini samarali ta'minlash hamda "Mahalla yettiligi" faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to“g‘risida”gi qarorida Globallashuv davrida o‘zgarib borayotgan bugungi jamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda davlat organlarining hamkorligini mustahkamlash, ularning faoliyatini yanada kuchaytirish va samarali ishslash mexanizmlarini yaratish zaruriy ahamiyatga ega bo‘lgan voqeylekka aylandi. O‘zini-o‘zi boshqarish organlari tizimida "Mahalla yettiligi" deganda qanday tuzilma tushuniladi va uning ishslash tamoyillari va mexanizm asosida ishlaydi. Yuqoridagi 137-sonli qarorda "Mahalla yettiligi" tarkibi aniq ko‘rsatib berilgan. "1) Mahalla raisi, 2) hokim yordamchisi, 3) yoshlar yetakchisi, 4) xotin-qizlar faoli, 5) profilaktika inspektori, 6) ijtimoiy xodim, 7) soliq inspektori"[4.] dan iborat bo‘lgan o‘zining ishslash mexanizimi va va har bir a’zosi o‘zining KPI ko‘rsatkichlariga ega ijtimoiy tuzilma sifatida ko‘rsatilgan.

"Jahonning ko‘plab rivojlangan mamlakatlaridagi oila munosabatlari va undagi muammolar bilan shug‘ullanuvchi yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida oila, xususan, yosh oila barqarorligini ta’minlash omillari, oilada "gender tenglik" tamoyilini joriy etish, farzand tarbiyasi va kamolotida oilaning o‘rni kabi masalalarni tadqiq qilishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. O‘z navbatida turmush qurayotgan shaxslarni ma’naviy, axloqiy, psixologik, reproduktiv jihatdan oilaga tayyorlash, ajrimlarning oldini olish, oilaviy munosabatlarda er va xotinning huquq hamda burchlari, to‘liqsiz oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning moddiy va ma’naviy holati bilan bog‘liq muammolarning diniy va dunyoviy asoslariga oid ilmiy izlanishlarni olib borish ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda"[5.5.]. Bu tadqiqotchilarining oilaviy o‘zgarishlarga doimiy qiziqishini oshishiga xizmat qiladi.

Oila butun jamiyat rivojlanish tendensiyalarini aks ettiruvchi muhim ijtimoiy institutlardan biridir. Oila - bu shaxsni ijtimoiylashtirishning asosiy axloqiy instituti va madaniy qadriyatlarning tarixiy uzatilishidir. Hozirgi vaqtida jamiyat axloqan va jismonan sog‘lom insonni tarbiyalashga qodir bo‘lgan ma’naviy kuchli oilaga har qachongidan ham ko‘proq ehtiyoj sezmoqda. Aytish mumkinki, millat salomatligi yosh avlodning axloqiy salomatligiga bog‘liq. Madaniy va tarixiy rivojlanish jarayonida ham oilaviy munosabatlarning shakli, munosabatlarning mazmuni ham, turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zgargan. Falsafiy-antropologik va falsafiy-madaniy tahlil uchun nikohning ayrim shakllari paydo bo‘lishining sabablari va oilaviy inqiroz sabablarini ko‘rib chiqish muhimdir. Madaniy va axloqiy qadriyatlarning tashuvchisi bo‘lgan zamonaviy oila o‘zgarishlarini, shuningdek, an’anaviy jamiyatda nikoh va oila turlarini o‘rganishni kuzatish kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Oila murakkab ijtimoiy-madaniy hodisadir. Uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u inson hayotining barcha jabhalarini yo‘naltirishga qodir, shuningdek, ijtimoiy amaliyat darajalariga: individualdan ijtimoiy-madaniy darajagacha borishi mumkin. Oila tarkibida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uchta blokni shartli ravishda ajratish mumkin:

- 1) tabiiy va biologik;
- 2) iqtisodiy, umumiy iqtisodiyotni boshqarish bilan bog‘liq;
- 3) ma’naviy va psixologik, ko‘proq darajada ota-onalarning sevgisi, bolalarga, keksa ota-onalarga g‘amxo‘rlik qilish, axloqiy xulq-atvor me’yorlari bilan bog‘liq. Birlikdagi barcha aloqalarning umumiyligi oilani alohida ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida yaratadi, chunki erkak va ayolning qonuniy ravishda mustahkamlanmagan va umumiy hayot bilan bog‘lanmagan yaqinligini oila deb atash mumkin emas.

Oila nikoh bilan aniqlanmasligi kerak, sababi nikoh - bu erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlarning bir shakli bo‘lib, uning yordami bilan jamiyat ularning oilaviy, qarindoshlik huquqlari va majburiyatlar va ehtiyojlari (fiziologik, psixologik va ma’naviy)ni tartibga soladi. Nikohdan farqli o‘laroq, oilani nikohdan ko‘ra murakkab munosabatlar tizimi deb tasavvur qilish mumkin, chunki oila nafaqat er va xotinni, balki bolalar va boshqa qarindoshlarni ham bog‘laydi. Shu munosabat bilan oilaga nikoh guruhi sifatida emas, balki ijtimoiy institut nuqtai nazaridan qarash kerak. Oilani ijtimoiy institut deb hisoblasak, oilaviy hayot sikli shakllanadigan bir necha bosqichlarni ajratish mumkin. Ushbu siklning bir necha davrlarini ajratish odat tusiga kiradi, ammo asosiyilar quyidagilar: 1) nikoh; 2) tug‘ish; 3) tug‘ish bosqichini yakunlanishi; 4) bolani oiladan ajratilishi; 5) turmush o‘rtoqlardan birining vafot etishi. Oilaning mohiyati uning funksiyalarida - uning faoliyatini, hayotini namoyon qilish usullarida aks etadi.

Oilaviy muammolar va ular bilan bog‘liq demografik muammolar hozirgi kunda fan va jamiyat diqqat markazida turibdi. Bu, avvalambor, oila institutining inqirozi bilan bog‘liq. So‘nggi paytlarda zamonaviy oila tarkibida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi: bolalar soni kamayib bormoqda, oilaviy munosabatlarni mustahkamlashda qarindoshlarning o‘rni va ahamiyati yo‘qolmoqda. Bu murakkab vaziyat esa oilaning axloqiy asoslarini yo‘q qilinishiga, oilaviy hayotda insoniy qadriyatlarni yo‘qotilishi va oilaviy aloqalarning zaiflashuvi tendensiyalarini og‘irlashuviga olib kelmoqda. Bu holatlar davlat va jamiyatni jiddiy tashvishli muammosiga aylandi.

Tahlil va natijalar. Oilaviy munosabatlarni tartibga solish, oilaning barqarorligini ta’minalash va oilaviy munosabatlarni mustahkamlashda duch kelinayotgan muammolarni tasniflar ekan (oiladagi nizo va kelishmovchiliklar; o‘zaro muloqotdagি muammolar; oila a’zolari (oilaning katta yoshli va kichik yoshli avlodlarning) qadriyatlardagi farqlarning mavjudligi; oila

a'zolarning mas'uliyatni o'z zimmasiga olishdagi muvozanatsizlik; moliyaviy beqarorlik; rollar va maqomlardagi o'zgarishlar; oilaviy ajrimlar; hissiy va psixologik zo'ravonlik; migratsiya) kabi muammolardan iborat deb hisoblaydi. Yangi O'zbekiston sharoitida ushbu ijtimoiy muammolarni hal qilishda “7+3” tartibida ishlaydigan ijtimoiy muammolarni hal qiluvchi bo‘g‘in tadqiqotchi taklif etgan. “Mahalla yettiligi” + tuman imomi va otinoyi, oqila ayollar harakati faolidan iborat bo‘g‘inni hamkorlikda ishlashi yettilik uchun belgilangan KPIga qo‘sishimcha tarzda + uchlik oiladagi nizolarni hal qilish, munosabatlarni barqarorlashtirish, oilaviy ajrimlarni oldini olish oilaning diniy va dunyoviy mohiyatini tushuntirish orqali oiladagi munosabatlar barqarorligiga erishiladi.

Hozirgi vaqtida davlatning oilaviy siyosat sohasidagi ustuvor vazifasi oila instituti hayoti uchun qulay sharoitlarni ta'minlash, uning iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy funksiyalarini bajarish, axloqiy asoslarni mustahkamlash va uning jamiyatdagi obro'sini oshirishdan iborat. Ushbu vazifani amalga oshirish shartlaridan biri bu oilani jamiyat va har bir inson hayotining ajralmas qismi sifatida chuqur va har tomonlama ijtimoiy-falsafiy tahlil qilishdir. Bunday tadqiqot oilaning asosiy funksiyalarini bajarishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi, zamonaviy davlatining manfaatlariga javob beradigan va shaxsning uyg'un rivojlanishiga hissa qo'shadigan oilaning me'yoriy modelini shakllantiriladi.

Xulosa. Jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayoni oilaviy munosabatlarning rivojlanishiga nikoh sohasida patriarxal asoslarni yemirilishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatdi. Zamonaviy sharoitda monogamiya o‘ziga xos xarakterini yo‘qotib, uning o‘rnini qayta turmush qurish huquqi egallaydi. Natijada, termoyadroviy, nikoh, jinsiy va reproduktiv xulq-atvor buziladi; “nikoh - sheriklik - ota-on - qarindoshlik” tizimining birligi buziladi. Tarkibiy o‘zgarishlar, shuningdek, zamonaviy oila faoliyati va rivojlanishining hozirgi bosqichi uchun xarakterlidir, bu tug‘ruq koeffitsiyentlarining yuqori darajadagi noqonuniy tug‘ilish bilan birgalikda pasayishi bilan tavsiflanadi; ro‘yxatdan o‘tmagan nikoh uyushmalarining tarqalishi fonida ajralish koeffitsiyentlarining ko‘payishi va boshqa holatlar ham aynan unga xos. Shu bilan birga, oila, unda mavjud bo‘lgan ota-onalarning arxaik tabiat tufayli, bolalarga ijtimoiy va psixologik jihatdan yaqin odamlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish modeli sifatida ijtimoiy ta’sir ko‘rsatishni davom ettiradi.

Bugungi kunda oila boshqa institutlar bilan doimiy raqobatdosh bo‘lib, ijtimoiy o‘zgarishlarning murakkab jarayonida ishtiroy etadi, bu oilaning ichki tuzilishiga muqarrar ravishda ta’sir qiladi. Oila o‘zgarib ketdi, ajralmas iqtisodiy birlik sifatida mavjudligini to‘xtatdi, ammo turmush o‘rtoqlar ittifoqi, ota-onalar va bolalar birlashmasi sifatida u zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyatda shaxsiy ma’noga ega bo‘lib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Авесто – тарихий-адабий ёдгорлик. – Toshkent. “Шарқ” НМАК, 2001.
2. Казачок И. «Школа счастливой семьи. Семьи и Здоровых отношений» Психологическая проект.
3. Tag‘yoeva D.N. Jadidlar ma’naviy merosida oila masalasi va uning falsafiy tahlili. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 15 martdagи “Mahallabay ishslashga mas’ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini va hamkorligini samarali ta’minlash hamda “Mahalla yettiligi” faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 137-son qarori.
5. Mirakbarova D.M. Oila institutini mustahkamlashda diniylik va dunyoviylik muvozanati. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022.
6. Потехина Е.А. Гендерные модели в культуре: философско-антропологический анализ: дисс. ... кан.философских наук. – СПб., 2018